

PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK MUHITINI YARATISHDA O'QITUVCHINING O'RNI

Ahmedova Madinabonu Ikromjon qizi

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti musiqa Ta'limi yo'nalishi

Annotatsiya Mazkur maqolada ta'lim jarayonida psixologik xavfsizlik muhitini yaratishning ahamiyati hamda bu jarayonda o'qituvchining roli tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, kommunikativ madaniyati va pedagogik yondashuvlari orqali psixologik xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida kuzatuv, suhbat, tahlil va diagnostika usullari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijobiy psixologik muhit talabani motivatsiyasi, o'z-o'ziga ishonchi va ta'lim sifatini oshiradi. Xulosa sifatida, o'qituvchining empatiyaga asoslangan muloqot madaniyati va ijobiy psixologik qo'llab-quvvatlovi ta'limda xavfsiz psixologik muhit yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: psixologik xavfsizlik, ta'lim muhiti, empatiya, o'qituvchi roli, kommunikatsiya, motivatsiya, ijobiy psixologiya.

РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В СОЗДАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИ БЕЗОПАСНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация: В статье рассмотрено значение создания психологически безопасной среды в образовательном процессе и роль преподавателя в этом процессе. Цель исследования определить пути формирования психологически безопасной образовательной среды через личностные качества, коммуникативную культуру и педагогический подход учителя. В качестве методов исследования использовались наблюдение, беседа, анализ и диагностика. Результаты показывают, что положительная психологическая атмосфера повышает мотивацию студентов, уверенность в себе и качество обучения. В заключении подчеркивается, что эмпатическое общение и психологическая поддержка со стороны преподавателя играют ключевую роль в создании безопасной образовательной среды.

Ключевые слова: психологическая безопасность, образовательная среда, эмпатия, роль преподавателя, коммуникация, мотивация, позитивная психология.

THE ROLE OF THE TEACHER IN CREATING A PSYCHOLOGICALLY SAFE LEARNING ENVIRONMENT

Abstract: This article analyzes the importance of creating a psychologically safe environment in the educational process and the crucial role of the teacher in this context. The aim of the research is to identify effective ways of building a psychologically safe educational atmosphere through teachers' personal qualities, communication culture,

and pedagogical approaches. Observation, interviews, analysis, and diagnostic methods were used in the study. The results show that a positive psychological environment increases students' motivation, self-confidence, and learning outcomes. The study concludes that teachers' empathetic communication and psychological support play a decisive role in ensuring a psychologically safe learning environment.

Keywords: *psychological safety, educational environment, empathy, teacher's role, communication, motivation, positive psychology.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi insonparvarlik, inklyuzivlik, shaxsga yo'naltirilganlik va ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki talabalarning emotsional farovonligini, ruhiy muvozanatini ham ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Chunki har qanday samarali ta'lim jarayoni, avvalo, ishtirokchilarning psixologik jihatdan o'zini xavfsiz, erkin va hurmat qilingan holda his etishiga bog'liq.

Psixologik xavfsizlik bu ta'lim muhitida talaba o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, xatolarni tabiiy o'quv jarayoni sifatida qabul qiladigan, tanqid va bosimdan holi bo'lgan ijobiy psixologik muhitni anglatadi. Bunday muhitda talaba o'zini qadrlangan, eshitilgan, tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan shaxs sifatida his qiladi. Psixologik xavfsiz muhit mavjud bo'lgan jamoada o'qish jarayoni ijobiy hissiyotlar bilan kechadi, bu esa o'z navbatida motivatsiya, ijodkorlik va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlarini kuchaytiradi.

Ta'lim jarayonida bunday muhitni yaratish o'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlariga, pedagogik madaniyatiga, muloqot uslubi va emotsional intellekt darajasiga bevosita bog'liqdir. O'qituvchi bu nafaqat bilim manbai, balki talaba uchun psixologik tayanch, ishonch va barqarorlik manbai hamdir. Uning empatiyaga asoslangan yondashuvi, adolatli baholash tizimi, o'zaro hurmat va e'tibor muhitini shakllantirish ko'nikmalari psixologik xavfsizlikning asosi hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muhitida psixologik xavfsizlikning mavjudligi talabaning o'quv faolligini oshiradi, stress va xavotir darajasini kamaytiradi, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi hamda jamoaviy muhitda o'zaro ishonchni kuchaytiradi. Shu sababli, o'qituvchining bu jarayondagi o'rni faqat o'quv materialini yetkazish bilan cheklanmay, balki sog'lom psixologik atmosfera yaratish, ijobiy hissiy qo'llab-quvvatlovni ta'minlash va har bir talabaning shaxsiy qadr-qimmatini tan olishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot ta'lim jarayonida psixologik xavfsizlikni ta'minlashni pedagogik tizimning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqadi va o'qituvchining bu boradagi rolini chuqur tahlil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Psixologik xavfsizlik muammosi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Xususan, A. Maslou o'zining "Ehtiyojlar iyerarxiyasi" nazariyasida xavfsizlik hissini insonning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri sifatida e'tirof etadi[7].

Unga ko'ra, inson o'zini xavfsiz his qilmas ekan, yuqori darajadagi kognitiv yoki ijodiy faoliyatga kirishishi mushkul. Shu boisdan, ta'lim muhitida psixologik xavfsizlikni ta'minlash bilim olish jarayonining poydevori sifatida qaraladi.

K. Rojers esa "inson markazidagi ta'lim" konsepsiyasida o'qituvchining empatik yondashuvi, samimiy muloqoti va ishonchli muhit yaratish qobiliyatini o'quvchining shaxs sifatida ochilishida hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatadi[10]. Uning fikricha, o'qituvchi talabaning ichki dunyosini tushunishga harakat qilishi, uni baholash emas, qo'llab-quvvatlash orqali o'qishga rag'bat uyg'otishi lozim.

A. Bandura o'zining "ijtimoiy o'rganish nazariyasi"da ta'lim jarayonida o'rganish nafaqat bevosita tajriba, balki ijtimoiy kuzatuv va model olish orqali ham kechishini ta'kidlaydi[2]. Shundan kelib chiqib, o'qituvchining o'zini tutishi, muomala madaniyati va his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati talabalarda xatti-harakat namunasi sifatida o'rnak bo'ladi. A. Adler esa ijtimoiy manfaat va jamoaviylik hissi orqali insonning ijobiy rivojlanishini ta'minlovchi omillarni ko'rsatib, ta'limdagi o'zaro hurmat va hamkorlik muhitining psixologik xavfsizlik bilan bevosita bog'liqligini asoslab beradi[1].

D. Goleman tomonidan ilgari surilgan "emotsional intellekt" nazariyasi ham bu borada muhim ahamiyatga ega[5]. Unga ko'ra, o'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqara olish, boshqalarni tushuna bilish va ijobiy muloqotni tashkil etish ko'nikmalari ta'lim jarayonida psixologik muvozanat va xavfsizlikni ta'minlovchi yetakchi omillardir.

Mahalliy tadqiqotchilar N. Karimova, R. Mavlonova, Sh. Shermuhamedova, D. Xoliqova va boshqalar o'z ishlarida psixologik xavfsiz ta'lim muhitining o'zbek ta'lim tizimidagi o'ziga xos jihatlarini o'rganishgan. Ularning izlanishlarida o'qituvchining emotsional intellekti, muloqot madaniyati, adolatli baholash tizimi va rag'batlantirish mexanizmlari psixologik xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy komponentlar sifatida qayd etilgan. Shuningdek, ular o'qituvchining shaxsiy namunasining tarbiyaviy ta'siri va talabalarning o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sirini ham ilmiy asosda tahlil qilganlar.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, psixologik xavfsizlik o'qituvchi faoliyatining markaziy jihati bo'lib, u faqat dars jarayonida emas, balki o'quv muhitining barcha bosqichlarida muloqot, baholash, rag'batlantirish va o'zaro hurmat tizimida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, insonparvar pedagogika va emotsional intellekt nazariyasi olindi. Tadqiqotning asosiy vazifasi o'qituvchining psixologik xavfsiz ta'lim muhitini yaratishdagi o'rni, uning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarining ushbu jarayonga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot davomida kuzatuv, suhbat, so'rovнома, pedagogik tajriba, kontent-tahlil va pedagogik diagnostika metodlari qo'llanildi. Tadqiqotda 5 ta oliy ta'lim muassasasidan 120 nafar talaba va 25 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Tajriba jarayonida o'qituvchilarning muloqot uslubi, hissiy barqarorligi, empatiya darajasi va talabalarga nisbatan munosabatidagi adolatlilik mezonlari tahlil qilindi.

O'tkazilgan so'rovnomalar natijasida talabalarning 78 foizi o'qituvchining samimiy muloqoti va hurmatli munosabati ularni darsda faolroq ishtirok etishga undashini bildirgan. 65 foiz talaba esa o'qituvchi tomonidan noto'g'ri xatti-harakatlar uchun jazolash o'rniga tushuntirish berilgan hollarda o'zini ruhiy jihatdan xavfsiz his qilganini qayd etgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining empatiya darajasi, kommunikativ kompetensiyasi, emotsional muvozanati va adolatli baholash yondashuvi psixologik xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardir. Shuningdek, o'qituvchining individual qo'llab-quvvatlash tizimi va ijobiy muloqot madaniyati talabalarning o'zini qadrlash hissini kuchaytirib, ularning motivatsiyasi va o'z-o'ziga ishonchini oshiradi.

Tadqiqot jarayonida shuningdek, psixologik xavfsizlikning uchta asosiy ko'rsatkichi ishonch muhiti, emotsional qo'llab-quvvatlash, va adolatli baholash tizimi ajratib olindi. Bu mezonlar asosida ishlab chiqilgan diagnostik model o'qituvchilarning faoliyatini baholash va takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida psixologik xavfsizlikni ta'minlash o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, muloqot madaniyati va emotsional kompetensiyasiga bevosita bog'liqdir. O'tkazilgan so'rovnomalar, kuzatuvlar va suhbatlar asosida aniqlanishicha, talabalarning o'zini erkin ifoda etish, xatolardan qo'rqqanlik va darsda faol ishtirok etish darajasi o'qituvchining o'zaro muloqotdagi iliqlik, ishonch va empatiyaga asoslangan yondashuviga mutanosib ravishda ortib boradi.

Tajriba natijalariga ko'ra, o'qituvchilar faoliyatida psixologik xavfsizlikni ta'minlovchi quyidagi asosiy omillar ajratib olindi:

Empatiya va emotsional sezgirlik. Talabalarni tinglash, ularning his-tuyg'ulariga befarq bo'lmaslik, muammolarini tushunishga intilish o'quv jarayonida ishonch muhitini yaratadi. Empatik o'qituvchi talabalar tomonidan "do'stona, ammo mas'uliyatli" shaxs sifatida qabul qilinadi.

Adolatli baholash va ijobiy fikr bildirish. Tadqiqot ishtirokchilarining 72 foizi o'qituvchi baholashda ob'yektivlikni saqlagan hollarda o'zini psixologik jihatdan xavfsiz his qilganini bildirgan. Shuningdek, rag'batlantiruvchi baholash uslubi talabalarni o'z fikrini ochiq aytishga, xatolardan qo'rqqanlikka undagan.

Muloqot madaniyati va konstruktiv fikr bildirish. So'rov natijalariga ko'ra, o'qituvchi tomonidan hurmatsiz yoki keskin munosabat bildirilgan hollarda talabalarda o'z fikrini yashirish, faoliyatdan chekinish holatlari kuzatilgan. Aksincha, konstruktiv muloqot, yumshoq tonda fikr bildirish psixologik xavfsizlikni mustahkamlagan.

Qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini shakllantirish. Tajribalar natijasida, o'qituvchi tomonidan jamoaviy o'yinlar, guruhli muhokamalar, rolli mashg'ulotlar kabi interaktiv metodlar qo'llanilgan darslarda talabalar o'zlarini yanada ishonchli va erkin his qilganlari qayd etildi.

O'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqara bilishi. Tadqiqotda qatnashgan talabalarning 68 foizi o'qituvchining tinch, barqaror kayfiyatda dars olib borishi o'zlarida

ijobiy ruhiy muhit yaratganini aytgan. Bu esa o'qituvchining emotsional intellekti ta'lim sifati va psixologik xavfsizlik darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, psixologik xavfsiz muhit nafaqat talabaning emotsional barqarorligiga, balki uning ijodkorlik, muloqotchanlik va mas'uliyat hissi kabi shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday muhitda talaba o'zini qadrlangan shaxs sifatida his qiladi, natijada o'qishga bo'lgan ichki motivatsiya va ishtiyoq sezilarli darajada ortadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xalqaro olimlar (K. Rojers, D. Goleman, A. Maslou) tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan uyg'unlikda ekanini ko'rsatdi. Masalan, Rojersning inson markazidagi ta'lim konsepsiyasi, Goleman tomonidan ta'riflangan emotsional intellekt modeli ham o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini ta'lim muhitining asosiy psixologik tayanchi sifatida ko'rsatadi.

Mahalliy sharoitda esa psixologik xavfsizlikni ta'minlash o'qituvchining milliy qadriyatlarga sodiqlik, insonparvarlik, axloqiy namuna va hurmat **madaniyati** kabi fazilatlariga ham bevosita bog'liq ekani aniqlandi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu jarayonni yanada mustahkamlash uchun o'qituvchilarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan trening va seminarlarni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi shaxsining psixologik barqarorligi va emotsional madaniyati nafaqat dars samaradorligini, balki butun ta'lim muhitining xavfsiz, sog'lom va insonparvar bo'lishini ta'minlovchi hal qiluvchi omildir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida psixologik xavfsiz muhit yaratish o'qituvchining shaxsiy, kasbiy va emotsional fazilatlariga bevosita bog'liq. O'qituvchi o'z dars jarayonida ishonch, hurmat, empatiya va adolat tamoyillariga amal qilgan holda har bir talabaga nisbatan individual yondashuvni qo'llasa, o'quvchilar o'zlarini erkin, qadrlangan va ishonchli shaxs sifatida his etadilar.

Psixologik xavfsizlikning ta'limdagi ahamiyati nafaqat o'quv jarayonining samaradorligi, balki talabalarining shaxsiy rivojlanishida ham namoyon bo'ladi. Bunday muhitda talabalar o'z fikrlarini erkin bildirish, yangilik yaratish va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'qituvchining ijobiy muloqot uslubi, emotsional barqarorligi va empatiyaga asoslangan yondashuvi o'quvchilarning psixologik farovonligini mustahkamlovchi asosiy omillardandir.

Shuningdek, o'qituvchining emotsional intellektini rivojlantirish, stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijobiy pedagogik muhitni yaratish bo'yicha muntazam trening va malaka oshirish dasturlari psixologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki shaxs rivojiga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi va ijtimoiy-psixologik muhitni boshqaruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim. Ta'limda psixologik xavfsizlikni shakllantirish o'qituvchining mahorati, mehr-muruvvati va pedagogik madaniyatini yanada yuksaltirish orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adler A. Understanding Human Nature. – Oxford: Oneworld Publications, 1998. – P. 210.
2. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: Freeman, 1997. – P. 240.
3. Bondarevskaya E. V. Teoriya lichnostno-oriyentirovannogo obrazovaniya. – Rostov n/D: “Feniks”, 2000. – C. 238.
4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – P. 91.
5. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – P. 356.
6. Karimova N. Psixologik madaniyat va pedagogik muloqot. – T.: “O‘qituvchi”, 2014. – B. 176.
7. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954. – P. 254.
8. Mavlonova R. Pedagogik mahorat va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016. – B. 224.
9. Omonova D. Pedagogik jarayonda emotsional barqarorlikni rivojlantirish. – T.: “Noshir”, 2022. – B. 140.
10. Rogers C. R. Freedom to Learn. – Columbus, OH: Charles Merrill, 1969. – P. 302.
11. Selevko G. K. Sovremennye obrazovatel’nye texnologii. – M.: “Narodnoe obrazovanie”, 2006. – C. 256.
12. Shermuhamedova Sh. Ta’lim jarayonida psixologik xavfsiz muhit yaratish omillari. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – B. 188.
13. Sultonova G. Oliy ta’limda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvning psixologik asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020. – B. 200.
14. Xoliqova D. Pedagogik kommunikatsiya va empatiya asoslari. – T.: “Ziyonet nashriyoti”, 2021. – B. 132.